

## AMALIYOTCHI PSIXOLOG ETIKASI

Toshkent amaliy fanlar Universiteti  
“Psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi

Ilmiy rahbar: Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Pedagogika fakulteti Psixologiya yo’nalishi

2-bosqich talabasi: To’g’aymurodova Shahzoda

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada psixolog faoliyatining etik muammosi, kasbiy me’yorlarning o‘ziga xosligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Psixolog shaxsining axloqiy jihatlari va me’yorlari haqida so‘z boradi. Psixologik xizmatni tashkil etish uchun amaliyotchi psixologdan talab etiladigan jihatlar yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** etika, psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional, etika, estetika, psixologik xizmat, korreksiya.

Psixologning etik kodeksi. Etika bu - xulq-atvor me’yorlarining yig‘indisi, jamiyat ma'lum guruhlarining axloqi. Har qanday kasbiy guruh ish faoliyatida, ish yuritishning qonun-qoidalari ishlab chiqiladi, mana shu qoidalaming yig‘indisi kasbiy etikani tashkil qiladi. Xuddi shunday, shifokorlik etikasi, ilmiy etika to‘g‘risida aytish mumkin. Ko‘pchilik shifokorlik etikasi muhimligini biladi.

Qadimgi yunon faylasufi va shifokori Gippokrat shifokorlar etik qoidalari belgilab bergen. Endilikda bu Gippokrat qasami deb nomlanadi, va tibbiy etika asosini tashkil qiladi. Psixologning kasbiy ish faoliyati bu insonning ichki dunyosi, shaxsiyati bilan ishlashdan iborat. Bu ish faoliyati etikaning o‘zgacha qonun va prinsiplariga bo‘ysunishni talab etadi. Psixologiya shunday imkoniyatlarga egaki, bularni qoilash juda ehtiyyotkorlikni talab etadi. Psixolog o‘z ish faoliyatini avvalo buyurtmachining foydasidan kelib chiqqan holda olib boradi. Lekin shu bilan birga zarar yetkazmasiik prinsipiqa amal qiladi, u yoki bu darajada amaliy tajribalarga qo‘shilgan mijozlar mas’uliyat sezishi kerak. Ko‘pgina psixologik jarayonlar orqaga qaytmasligini nazarda tutisb kerak. Gippokrat tomondan tuzilgan bu zarar yetkazish etikaviy qoida nafaqat shifokorlar, psixologlar uchun ham juda muhim. Psixologning olib borgan psixologik jarayonlari insonning sog‘ligiga, jamiyatdagи o‘miga, qiziqishlariga zarar yetkazmasligi lozim. Bundan tashqari, psixologik tahlil javoblaridan xabari bor insonlar ham tekshiriluvchiga zarar yetkazmasliklarini ta’minlash zarur. Buning uchun psixolog o‘z takliflarini shakllantirib, ularni saqlanishini tartibga soladi.

Amaliy psixolog statusiga ega bo‘lishni istagan insonga bir qator talablar qo‘yiladi ularning birinchisi u oliy ma’lumotli psixolog bo‘lishi zarur. Bunday diplom oliy o‘quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan

tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyat, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan xabardor bo‘lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. Amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan habardor bo‘lishi lozim. Amaliy psixolog albatta hamma sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo‘ladi va shu bilan birga u hammaga hamdard bo‘la oladigan inson bo‘lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotgan albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta’minlashi zarur bo‘ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlash vaqtida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

#### Mijozni xurmat qilish prinsipi

Psixolog tajriba qilinayotgan mijozni qarashlarini hurmat qilishi, u bilan aloqada rostgo‘y, haqqoniy bo‘Mishi talab qilinadi. Psixolog bilan muloqot davomida mijoz unga nisbatan ishonch, moyillik, va qoniqish hissini sezishi kerak.

Amaliy psixolog va mijoz o‘rtasida tenglikka asoslangan muloqot amalga oshsa, bu ish jarayoni optimal olib borilayotganidan darak beradi Mijoz o‘zini psixologning to‘laqonli hamkoridek sezishi kerak. Amaliy psixolog mijozning harakatlariga nisbatan baholovchi gaplar aytishdan o‘zini tiyishi va unga keraksiz maslahatlar berishdan o‘zini qaytarishi kerak.

Buyurtmachiga psixolog tarafdan beriladigan yordam maslahat ko‘rinishida boiishi kerak, uning kasbiy ishbilarmonligiga hurmat bilan qarab, ehtiyyotkorona fikr bildirishi kerak. Yuqorida qayd qilib o‘tilgan talablarning, har birini psixodiagnostikaning tamoyillari sifatida alohida ko‘rib chiqamiz. Psixodiagnostikaning sir saqlash tamoyili – sinaluvchining ruxsatisiz olingan natijalarni e’lon qilmaslik, bu birinchi navbatda balog‘at yoshiga etgan odamlarga taalluqlidir. Agar sinaluvchilar balog‘at yoshiga etmagan bo‘lsa hamda psixodiagnostik natijalarni e’lon qilish uchun ota-onalarning, bolalar uchun ma’naviy va huquqiy mas’ul bo‘lgan shaxslarning ruxsati bo‘lishi shart. Faqat ba’zi hollarda ilmiy maqsadda, ya’ni eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida e’lon qilish bundan mustasno, ammo sinaluvchilarning aniq ismi-shariflarini bayon etish tavsiya qilinmaydi.

Amaliy psixolog va mijoz o‘rtasida tenglikka asoslangan muloqot amalga oshsa, bu ish jarayoni optimal olib borilayotganidan darak beradi Mijoz o‘zini psixologning to‘laqonli hamkoridek sezishi kerak. Amaliy psixolog mijozning harakatlariga nisbatan baholovchi gaplar aytishdan o‘zini tiyishi va unga keraksiz maslahatlar berishdan o‘zini qaytarishi kerak.

Buyurtmachiga psixolog tarafdan beriladigan yordam maslahat ko'rinishida boiishi kerak, uning kasbiy ishbilarmonligiga hurmat bilan qarab, ehtiyotkorona fikr bildirishi kerak.

Psixologik hizmatning asosiy mazmuni – sog`lom shaxsning o`sishini ta`minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir. Birinchi bo`lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat atshkil etildi. Uning rahbari X.I.Liymets, Yu.L.Serd bo`lib tarbiyasi qiyin o`smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojalanishiga juda katta hissa qo`shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o`sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o`sishi va axloqiy potensialiga bog`liq bo`ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o`tgan XX asrning 1960 yillarda paydo bo`lib hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o`quvchilarning aqliy rivojlnish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi. Psixolog B.L.Vulfson Fransiyaning hozirgi vaqtgagi pedagogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Agiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi . Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatlarini va qobiliyatlarini testlar orqali aniqlash o`tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi ma`lum. Lekin hozirgi vaqtida odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo`lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to`g`ri keladi. O`zbekistonda psixologik xizmatning tadbiq etilishi. 1989-yilda O`zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli TDPUda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O`zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida E.G`oziyev, M.G.Davletshen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, E.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safarov, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o`z hissasini qo`shgan va hozirga qadar o`z izlanishlarini davom ettirmoqda.

Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapeutik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhabatga kirisha olishi va insonlarni o`ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo`ladi. U o`zida ishonch uyg`ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta`sir o`tkaza olishi zarur bo`ladi. Demak bo`lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o`z ma`naviy qadriyatlariga ega bo`lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin momalada bo`lishi talab qilinadi.

**Xulosha:** Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapeutik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhabatga kirisha olishi va insonlarni o`ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur

bo‘ladi. U o‘zida ishonch uyg‘ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza olishi zarur bo‘ladi. Demak bo‘lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o‘z ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin momalada bo‘lishi talab qilinadi. Psixologning kasbiy ish faoliyatining ajralmas va muhim jihatni bu-psixodiagnostika qilish sanaladi. Bunday faoliyatda psixolog shaxsining ma’naviy axloqiy tomoniga katta e’tibor beriladi. “Axloq” va “ma’naviyat” tushunchalari shunday meyor va prinsiplami o‘z ichiga oladiki, ular individlaming o‘zaro va jamiyat o‘rtasida qiziqishlarini tartibga solish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu meyorlar insonlaming yaxshilik va yomonlik tushunchalariga mos ravishda xulqlarini tartibga solishga yo‘naltirilgan va shaxsiy fikr, urf-odatlar, tarbiya, jamiyat fikri bilan qo‘llab quwatlanadi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tushunchalar shaxsning kasbiy ish faoliyatida o‘zini tutishi va fikrini tartibga solib turadi. Shaxsiy prinsiplar u yoki bu kasbning ma'lum sharoiti va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va asosan mutaxassislarga nisbatan axloqiy kodeks talablar bilan ifodalanadi.

Psixologning kasbiy etikasi uning kasbdoshlari bilan, ilmiy jamiyat bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek, tekshirayotgan shaxslar, respondentlar (psixologik yordam so‘rab kelsak) bilan o‘zaro munosabatlarida ko‘rinadi. “Psixologning etika kodeksi” bu etikaning asosi bo‘lib kelgan.

### Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlod.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(1), 272- 274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education’s Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General

- Secondary Education using Multimedia Resources. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 9(3), 2677-2684.
8. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(02), 1337-1346.
  9. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 7(8). 16-22.
  10. НЖ Эшнаев, TF Маратов, Г Мирзарахимова. (2020). Ўзбек миллий кино санъати ва маданиятида психопрофилактик хизмат тизимини жорий этиш масалалари. Oriental Art and Culture 03. 156-165.
  11. Turakulov Buri Norboevich. (2020). Analysis of psychological theory of emotional intelligence. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8(3). 99- 104.
  12. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) "PROBLEMS OF FORMATION OF LEARNING MOTIVES IN PUPILS", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6,
  13. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. . (2020) "DEFECTS IN SCIENTIFIC RESEARCH OF THE PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL CRISIS AND ITS SOLUTION", IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 5, no. 8, p. 6.
  14. Григорович J1.А. Введение в профессию "психолог". М, 2004.
  15. Карандашев В.Н. Психология: Введение в профессию. М, 2009.
  16. Ковалева А.И. Носкова О.Г. Моя профессия психолог. МГУ, 2007
  17. <http://textshare.tsx.org>
  18. <http://www.mgimo.ru/fileserver> 6. <http://www.ssu.runnet.ru>